

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори. сиёсий фанлар номзоди. профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i> О'ЗБЕКИСТОНДА О'ZINI О'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING АНОЛИНИ ИЖТИМОИЙ НИМОYA QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING АНАМИYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Rahimbayev Akmal Azatboevich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI	158-170
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI	187-191
<i>Xasanov Boburjon Hakimovich</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida).....	205-214

<i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	215-219
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS	220-227
<i>Ravshanova Gulrukhbegim Qaxramon qizi</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ	228-232
<i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	233-237
<i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI	238-243
<i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI	244-252
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI	253-258
<i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR	259-265
<i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION	266-271
<i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI	272-277
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	278-286
<i>Murzaev Shuxrat Shavkatovich</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ	287-293
<i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL	294-301
<i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES	302-309
<i>Xodjaeva Shirinxon Olimxon kizi</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ	310-315
<i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJYIY TAJRIBA	316-322
<i>Aliyev Sobir Tursunboevich</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	323-329

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Хаййева Ирода Адамбаевна

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИЯ ТАРАҚҚИЙОТИДА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНСИЯ
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Janonova Sitora Berdinazarovna
Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti doktoranti

**TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA
TUSHUNCHASINING O'RNI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada, ta'lim va tarbiya integratsiyasida kompetentlik tushunchasi, uning ahamiyati, zamonaviy ta'lim jarayonlarida "tashkiliy ta'lim" mexanizmini ishlab chiqish zarurati, ta'lim va tarbiya uyg'unligida avvalo – mahalliy tarixiy an'analarga mos ravishda kommunikativ kompetensiya oshirib borilsa, uning samaradorligi pozitiv kechadi. Shuningdek, "tarbiyaviy ta'lim"ni tashkillashtirish konsepsiyasiga ham alohida urg'u berish zarur degan fikrlarilgari surilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, kreativ fikrlash, ilmiy innovatsion,shaxs psixologiyasi.

Janonova Sitora Berdinazarovna
Doctoral student of the Samarkand Institute of Agroinnovations and Research

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITY AND MANAGEMENT
SKILLS OF TECHNOLOGY EDUCATION TEACHERS**

Abstract. This article examines the concept of competence in the integration of education and upbringing, its importance, the need to develop a mechanism for "organizational education" in modern educational processes and, above all, in the harmony of education and upbringing – when communicative competence increases in accordance with local historical traditions, its effectiveness becomes positive. There are also opinions that it is necessary to place special emphasis on the concept of organizing "educational training".

Key words: integration, competence, communicative competence, creative thinking, scientific innovation, personality psychology, phenomenon.

Жанонова Ситора Бердиназаровна
Докторант Самаркандского института агроинноваций и исследований

**РОЛЬ ПОНЯТИЯ КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И
ВОСПИТАТЕЛЬНОМ РАЗВИТИИ**

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие компетентности в интеграции образования и воспитания, ее значение, необходимость разработки механизма "организационного воспитания" в современных образовательных процессах и, прежде всего, в гармонии образования и воспитания – когда коммуникативная компетентность повышается в соответствии с местными историческими традициями, ее эффективность становится положительной. Также высказывается мнения, о том что необходимо сделать особый упор и на концепцию организации "воспитательного обучения".

Ключевые слова: интеграция, компетентность, коммуникативная компетентность, креативное мышление, научные инновации, психология личности, феномен.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N52>

Bugungi zamonaviy jamiyatda barcha ne'matlarga (moddiy va ma'naviy) bo'lgan munosabat o'zgarib bormoqda, bu bir tomondan hayot sur'atlarini naqadar tez o'zgarib borayotganligini anglatsa, ikkinchi jihatdan inson faoliyatida "oddiy turmush tarzidan chiqish, o'z maqsadlariga ko'ra murakkablik sari intilayotganligini ko'rsatadi. Bu fikrni ikki tomonlama izohlash mumkin.

Birinchi jihatdan:– inson ehtiyojidan ortiq bo'lgan moddiy ne'matlarga intilishi ortib bormoqda;

– inson tabiatdan o'ziga kerak bo'lgan ne'matlarni olishni o'rgandi, ammo u (tabiat zaxirasi) ham cheksiz emasligini anglashni unutdi;

– avlodlardan qolgan merosni o'ziga tegishli deb bilgan inson, u (moddiy va ma'naviy boyliklar) kelajak avlod uchun ham ekanligini anglash mas'uliyatidan uzoqlashdi;

– shaxs psixologiyasida ma'naviy yuksalish tushunchasiga bo'lgan munosabat passivlashib (bu muhim emas, zarurat tug'ilganda o'zlashtirish mumkin), moddiy unchilik ortdi, ya'ni insonni dunyoviy ho'yu-havaslariga intilishi ustuvorlashib, jaholat, insofsizlik, mehr-oqibat, noinsoniylik, milliy ma'naviy qadriyatlardan begonalashuv kuchaydi.

Ikkinchi jihatdan qaraganda ilm-fan taraqqiyoti yuqori darajaga yetdi, inson hayotida qulaylik yaratish borasidagi "ilmiy kashfiyotlar", "ixtirolar" amaliy jihatdan yuqori bosqichga ko'tarildi. Xususan, sun'iy intellektga asoslangan elektro-texnologiyalar, global iqtisodiy integratsiya, ijtimoiy ong, dunyoqarashning oshishi shular jumlasidandir.

Jumladan, ilm-fanni yuksaltirish, jamiyatdagi ishlab chiqarishning (moddiy, ma'naviy) har bir bosqichini ilmga asoslangan holda tashkillashtirish, boshqarish va nazorat shaklini olib borish tadrijiyligini ta'minlashda ijtimoiy ongning barcha yo'nalishlari kesimida dadil qadamlar tashlash boshlandi. Shaxs kommunikativ kompetensiyasini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy harakatlar ham shular jumlasidandir. Zero inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim va tarbiyani takomillashtirish, zamon ruhiga moslash (milliy o'zlikni saqlagan holda), ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirish "kommunikativ kompetensiya" orqali amalga oshiriladi. [1].

Ma'lumot uchun: kommunikativ kompetensiya tushunchasiga fenomen sifatida qarash, uni turli fan sohalari doirasida ko'rib chiqish, masalaga kompleks yondashuvni anglatib, shu orqali bu kategorianing mazmun-mohiyatini kengroq tadqiq etish mumkin.

Kommunikativ atamasi etimologik "muloqot qilish yoki muloqotda birlashish" kabi ma'nolarni bersa, lug'aviy jihatdan – fran. Kommuna (commune) – jamoa so'zini anglatadi. Bu tushuncha umumiy mazmunga ko'ra "muloqot qiluvchi tomonlarning g'oyalari, fikrlari, bilimlari, his-tuyg'ularini aks ettiruvchi integral belgilar shakllanishining almashinuvi" deyiladi. [2].

Kompetensiya ([lot.competo](#) – erishyapman, munosibman, loyiqman) kabi ma'nolarni bersa, mohiyatiga ko'ra "kompetensiya – dinamik bo'lib, generative jarayonlar tizimini ifodalaydi", – degan izohni birinchi bo'lib Avram Noam Chomskyning "Sintaksis nazariyasi jihatlarini" nomli asarida uchratish mumkin.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasiga fan sohasiga qarab turli shakl va umumiy mazmundagi ko'plab ta'riflar berilgan. Jumladan, Claudia Kiesslingva Goetz Fabry qarashlari bo'yicha **kommunikativ kompetensiya** – bu ijtimoiy jihatdan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni tegishli kontekstda mos keladigan, shaxsda turli samarali ko'nikmalarni shakllantiradigan qobiliyatlarni o'z ichiga oluvchi fenomendir. [3].

B.Sapayeva fikricha kompetensiya – nafaqat shaxsning ma'lum bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari yig'indisi, balki shaxsning individual qobiliyatlari majmui hamda shaxsda zarur sifatlarni shakllantirishning muayyan yakuniy natijasidir. Shuningdek, **kommunikativ**

kompetentlik – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda ularda muloqotchanlik malakasini rivojlanishiga olib keladi deb, ta‘riflanadi.

O.V.Kudryashova olib borgan tadqiqotlar xulosasi bo‘yicha barcha kompetensiyalarning asosi bilim va ulardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo‘lib, kompetensiya va kommunikativlik o‘rtasidagi farq shundaki, u har doim turli muammolarni hal qilish uchun birgalikdagi faoliyat va o‘zaro ta‘sirda – hissiy va psixologik tayyorlik bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalaydi hamda o‘quvchilarning ma‘lum shaxsiy fazilatlarini, axloqiy, etnik qadriyatlarini tasniflashda muhim omil hisoblanadi.

Salama Embark Saleh bergan izohga ko‘ra, bu atama (kommunikativ kompetensiya) borasida yagona konsensusga hanuz kelinmagan. Chunki, uning mohiyatini ochishda ko‘p qirrali teoreмага tayanishga majburlanib, shu sababli, har bir kishi o‘z tushunchasidan (qarashlari, salohiyati, tadqiqot obyekti) kelib chiqqan holda ta‘rif va tasnif beradi. Saleh qarashlari bo‘yicha kommunikativ kompetensiya – so‘zlovchining turli lingvistik, sotsiologik va kontekstual sharoitlarda tildan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini anglatadi. [4].

Bizning nazarimizda kommunikativ kompetensiya ta‘lim va tarbiya tizim samaradorligiga erishish yo‘lidagi say-harakatlar uchun “lokomotiv” vazifasini o‘tashi bilan muhimdir. Shu jihatiga e‘tibor qaratgan holda **kommunikativ kompetensiyaga** – turli mentalitetga xos bo‘lgan millat va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘un, manfaatli muloqot maydonini shakllantiruvchi, umumiy maqsadlar, orzu-umidlarni bir nuqtaga jamlovchi ijtimoiy mexanizmlar majmui desak, mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Kommunikativ kompetensiya kategoriyasi integrative xususiyatiga ko‘ra ko‘plab turlarga bo‘linadi. Quyida shulardan ta‘lim va tarbiya integratsiyasiga olib boruvchi ayrim guruhlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Pedagogik faoliyatni muvofiqlashtirish jarayonida kommunikativ kompetensiya uslubida dars o‘tishni tashkillashtirish – talaba yoshlar o‘zlashtirayotgan bilim darajasini yanada mustahkamlashga ko‘mak beradi. Masalan, til o‘rganish kurslarini tashkillashtirishda, o‘quvchilarga yetkaziladigan.

Pedagogik faoliyatni tashkillashtirish jarayonida kommunikativ kompetensiyaning ijtimoiy xususiyatidan kelib chiqqan holda, uni pozitiv va ta‘sirli boshqaruv mexanizmini ham to‘g‘ri qo‘llay bilish kerak. Aks holda o‘qituvchi tomondan yetkazilayotgan bilim, qabul qiluvchining (o‘quvchi) o‘zlashtirishida “notekislik”ni yuzaga keltiradi. Bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. O‘qituvchi nafaqat bilimli bo‘lishi, balki kuchli notiq, tahliliy fikrlovchi, o‘quvchining qabul qilish darajasini ko‘ra olish qobiliyatiga ega psixolog, auditoriyani boshqarish ko‘nikmasiga ega tajribali mutaxassis, pedagogik layoqat va harakatchanlik (dinamizm), ijtimoiy faollik, ta‘sirchan emotsionalizm, turli qatlam, tabaqa vakillari bilan muvozanatli muloqotchanlik, qat‘iyatlilik o‘z-o‘zini boshqara olish xususiyatiga ega emasligi.

2. Auditoriyani boshqaruvchi tyutor taqdim etilayotgan axborot ko‘lami keng va seleksiya qilinmagan bo‘lsa, qabul qiluvchi auditoriya “sig‘imi” (o‘quvchilarni bilim qabul qilish salohiyati) axborotga nisbatan nomuvofiq darajada taqsimlanganligi.

3. O‘qituvchida rahbarlik uslubining yetarli emasligi, yuzaga kelgan vaziyatga pozitiv baho berish qobiliyatining beqarorligi, guruhlararo munosabatda nomuvofiq yo‘l tutishi, auditoriyadagi mikromuhit elementi hisoblangan “o‘zaro munosabatni ushlab turish qoidalariga amal qilmaslik”, kutilmagan vaziyatda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonga tayyor emasligi, guruh harakatlarini tashkillashtirish, boshqarish va barqaror nazorat qilib borish bilim, ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmaganligi.

4. Boshqaruvchida jamoa faoliyatidagi umumiy maqsadlarni aniqlash, zaruratga qarab o‘zgartirish, ma‘lum bir vaziyatni shakllantirish, aniq faoliyatni rejalashtirish, guruhni

rag'batlantirish vositalarni qo'llay bilmaslik va hokazolarni kiritib o'tish mumkin. [5]. Ushbu fikrlarni to'ldirish maqsadida quyida O.A. Tadjievning "auditoriyada boshqaruvchi vazifasini o'tovchi pedagog qanday bo'lishi kerak!" – kabi savollarga bergan javobini keltirib o'tamiz:

- jamoa orasida ongli tarzda "metin" intizomni shakllantirishni bilishi kerak;
- ta'limda maqsadni aniq qo'ya bilishi va muammo yechimiga olib boruvchi yo'lni ko'rsata olishi kerak;
- tabiatan nozik, farosatli, xotirasi mustahkam, zehni o'tkir bo'lishi kerak;
- o'qituvchi tinmay o'z malakasini oshirishi, o'z ustida izlanishi, qunt bilan ishlashi kerak;
- talabchan, mas'uliyatli, auditoriyani boshqarish muammosini o'z zimmasiga olishga ham ruhiy, ham malakaviy tayyor bo'lishi, shuningdek obro'-e'tiborga ega bo'lishi, pedagogik jamoa ishonchini oqlashi, o'quvchilar faoliyatini to'g'ri idrok etishi, ta'lim va tarbiya natijalarini kuzata bilish, baholay olishi, zarurat tug'ilganda mavjud holatlarni tahlil va tanqid qila olishi kerak. [6].

Demak, pedagogda kommunikatsion boshqaruvchan ko'nikmasi mavjud bo'lsa, u ma'lum vaziyat yuzaga kelganda to'g'ri qaror qabul qilishiga qiynalmaydi, xodimlar (bu o'quvchilar auditoriyasi ham bo'lishi mumkin) bilan ishlashda malakaviy ko'nikmaga, bilimga ega bo'ladi va buning natijasi o'laroq, qabul qilgan qarorlarining aksariyati (masalan 65-75%) to'g'ri bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy pedagogikada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini baholash masalasi ham muhim "pedagogik komponent"lardan hisoblanadi. Jumladan, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, boshqarish usullarini takomillashtirish, mavjud mexanizmlarini zamonaviy uslubda modernizatsiya qilib borish muammosi zamonaviy ta'limda dolzarb masala hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Ammo bu masalaning bir tomoni hisoblanadi, muammoning ikkinchi tomonida "talaba yoshlar" turadi. Shu jihatdan qaraganda – o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi amaliy jihatdan "o'quvchi auditoriyasi"da belgilanadi. "Ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlashda o'quvchida qanday "ijtimoiy kompetensiya"lar mavjud bo'lishi kerak!" kabi savollarga Drapeau Patti quyidagicha javob beradi:

birinchidan, har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish;

ikkinchidan, qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish;

uchinchidan, ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish;

to'rtinchidan, faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnata olish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmaga ega bo'lish;

beshinchidan, o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish va hok.

Ta'lim va tarbiya taraqqiyoti ko'p jihatdan jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasidagi funksional integratsiyani talab etishini inobatga olsak, ta'lim sifat samaradorligida pedagogik kompetensiyalardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy, psixologik kommunikativ kompetensiyalar ham muhim o'rin tutishini ko'ramiz. Xususan, I.Vizniuk, S.Dolynnyi, N.Rabetska, T.Ladychenko, N.Zagrebelnalar talaba sifatli bilim olishi uchun, uning ijtimoiy-iqtisodiy kommunikativ kompetensiyasi qanday bo'lishi kerakligini va bu jarayon, uning

psixologik holatiga qanday ta'sir etishi mumkinligini gnoseologik jihatdan quyidagi ochib berishadi: [7].

– oliy ta'lim muassasalarining ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik jihatdan ularning iqtisodiy barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Va albatta, bu jarayon talabalarda kasbiy-shaxsiy o'sishi uchun asos yaratadi;

– bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan talabani muqobil resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, uning kasbiy tayyorgarligida asosiy o'rin tutishi hech kimga sir bo'lmasa-da, ammo ushbu muammoning universal ilmiy yechimi hanuz ishlab chiqilmadi. Masalan, "o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ta'lim faoliyatini takomillashtirish sharoitida ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiruvchi iqtisodiy mexanizm qanday bo'ladi!" kabi savollar ustida olib borilishi kerak bo'lgan tadqiqotlar mavjud emas;

– talabani kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lgan va ularning kasbiy faoliyatida kommunikativ o'zaro ta'sirni rivojlantirishga yordam beradigan ijtimoiy-iqtisodiy omillarga subyektiv yondashilsa, muammoning prakseologik, gnoseologik komponentlari yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, prakseologik komponent bo'lajak mutaxassislarning samarali, konstruktiv, ijodiy-innovatsion faoliyatini tashkil etishdi – konstruktiv omil hisoblanadi. Chunki, yangi texnologiyalar, dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchidan iqtisodiy imkoniyatga borib taqalsa, ikkinchidan ijtimoiy muhitni yuzaga keltirgan shart-sharoitga bog'liq hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr mulohazalarga qo'shimcha qilib o'tadigan bo'lsak, talaba yoshlarni sifatli ta'lim olishida ijtimoiy-iqtisodiy kommunikativ kompetensiyalar bilan birga, ularda quyidagi shaxsiy, milliy mentalitetiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik komponentlari ham barqaror shakllangan bo'lishi kerak: shaxsda kommunikativ kompetensiyaning individual elementlari (har bir kishining ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda zarur deb, hisoblangan ehtiyojlar);

shaxsiy fazilati bilan bog'liq bo'lgan amaliy ko'nikmalari;

jamoaviy tartibda munosib muloqot qobiliyatining mavjudligi;

ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan kommunikativ xatti-harakat qoidalarini o'zlashtirganligi; huquqiy jihatdan tartib-normalarni bilishi;

atrofdagi insonlar bilan konstruktiv munosabatni saqlay bilish imkoniyati va boshqalar.

Kommunikativ kompetensiya kategoriyasi ontologik xususiyatiga qarab, oddiylikdan umumiylikka, undan xususiylikka sari yo'naltirilishi ham mumkin. Bunda shaxsning pedagogik imkoniyati oshib, psixologik ta'sirchanligi kamayadi. Natijada, insonda diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, tashqi stress ta'siridan holi bo'lish ko'nikmasi shakllanadi. Bu esa, sifatli ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlashda muhim omildir. Ilmiy tadqiqotlarning bu qismi "Fan falsafasi", "Falsafa metodologiyasi" kabi yo'nalishlarda ko'rib chiqiladi. Xususan, "Fan falsafasi" doirasida tahlil etadigan bo'lsak, "asosiy e'tibor muammoning qaysi tomonlariga qaratiladi!" kabi savollarga quyidagicha javob berish mantiqan to'g'ri bo'ladi:

birinchidan, bizga ma'lumki shaxs psixologiyasi tashqi ta'sirdan ko'ra ichki qarama-qarshilikka (o'z o'zi bilan kurashishga toqatsiz hisoblanadi) chidamsiz hisoblanadi, bu shaxsda o'zini o'rab turgan "aura"ga qarshi reaksiya qilish imkoniyatini passivlashtiradi. Shu sababli, shaxs o'zida impulsiv reaksiya hosil etishida "o'z o'zini tarbiyalash psixologiyasi" muhim o'rin tutadi. Albatta, bu uning yuqori darajadagi faolligi bilan o'lchanadi. Masalan, doimiy harakatda bo'lgan inson – ko'p ma'lumotga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida bir nechta qiyin vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish ko'nikmasini o'zlashtiradi. Demak, ijobiy fikrlash, yuqori kayfiyatni saqlab qolish inson ruhiyatidagi o'zgaruvchan "agressiyaga qarshi" ruhiy-emotsional immun

hosil etishga bog'liq deyish to'g'ri bo'ladi. Agar ilmiy jamoatchilik tomonidan taqdim etilayotgan so'ngi tadqiqot xulosalariga e'tibor qaratsak, muammoning shu jihati ko'proq muhokamalar maydonida turganligini ko'ramiz. Masalan, X.X. Jabborov, S.G'. Samatova kabi tadqiqotchilar shunday fikrni ilgari surishadi:

– zamonaviy psixologiyada koping xulq-atvor stressli vaziyatni bartaraf etishga yo'naltirilgan, ratsional xulq-atvor sifatida qaralmoqda;

– u asosan ikki omilga – subyekt va real vaziyatga bog'liq bo'ladi, hamda shaxs hayot faoliyatining xulq-atvor, emotsional va kognitiv darajalarida namoyon bo'ladi;

– stressni yengishning asosiy funksiyalari sifatida inson ichki va tashqi mukammalligini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash hisoblanadi;

– stressli vaziyatni samarali yenga olish usullarini anglashda shaxs o'z harakatlarida samarali boshqarishida ko'rinadi deb, shaxs psixologiyasidagi xulq-atvorga bog'liq o'zgarishlar "xususiy" ekanligini tushuntirishga urinadi.

Bundan xulosa shuki, ta'lim va tarbiya jarayonida o'zaro integratsiyaviy bog'liqlikni ta'minlash falsafiy jihatdan qaralganda — inson shaxsiyatida kechuvchi tabiiy o'zgarishlar, ijtimoiy shart-sharoitga bog'liq bo'lib, uni boshqarish va pozitiv shakllantirish, ya'ni o'zi va jamiyatga foydali qilish imkoniyati insonning o'ziga bog'liq ekanligini isbotlashga harakat qilinadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. J.G'. Yo'ldoshev., A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O'qituvchi, 2004. –104 b.
2. Кудряшова О.В. Методика поэтапного формирования коммуникативной компетенции в письменной речи: Английский язык. Дис. канд. пед. наук: 13.00.02. – Челябинск. 2005. –С. 192
3. Kiessling C., Fabry G. What is communicative competence and how can it be acquired?//GMS journal for medical education. 2021. –№. 3 (38). –P. 49. Doi: [10.3205/zma001445](https://doi.org/10.3205/zma001445)
4. Mamadjanova N.A. Ta'lim jarayonlarida kommunikativ kompetensiyaning o'ziga xos xususiyatlari// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. –№. 3 (3). –В. 115-120
5. Saleh S.E. Understanding communicative competence//University Bulletin. 2013. –№. 3 (15). –P. 101-110
6. Сапаева Б. Коммуникатив компетентлик тушунчасининг моҳияти//Общество и инновации. 2022. –№. 1/S. –В. 320-325
7. Chomsky Noam. Language and Politics. –Великобритания: АК Press, 2004. –802 p

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).